OQSIL ENERGIYA YETISHMOVCHILIK BOR GO'DAKLARDA TURLI SOMATIK KASALLIKLARNING UCHRASH SABABLARI

Xolmatova Nurxon Olimovna
Andijon davlat tibbiyot instituti

Dolzarbligi. Oqsi energiya yetishmobchilgi tana vaznining yetarli oshmasligi, teri osti yog' qavatining kamayishi, moddalar almashinuvi izdan chiqishi, infeksiyalarga moyillikning ortishi hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishning kechikishi bilan tavsiflanadi. So'nggi yillarda ushbu holat bilan bog'liq bo'lgan somatik va yuqumli kasalliklar soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ma'lumki OEY patogenezida yuqumli kaslliklar fonida ovqat hazm qilish zanjirining buzilishi yotadi. Bu esa bolada ovqatga tolerantlikning pasayishiga, fermentlar faolligining kamayishiga va oziq moddalarning o'zlashtirilishining buzilishiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi: Andijon viloyatida 1 yoshgacha bo'lgan OEEga ega bolalarda somatik kasalliklar uchrash chastotasi va ularning bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy havf omillarini aniqlash.

Material va usullar: Tadqiqot Andijon viloyati ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasining turli bo'limlarida davolanayotgan 21 nafar 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda olib borildi. Ularda antropometrik o'lchovlar klinik tekshiruv, tibbiy hujjatlar tahlili, ovqatlantirish va ijtimoiy sharoitlar bo'yicha savolnoma, laborator va instrumental tashxislar yig'ildi, oqsil energiya yetishmovchiligining I, II va III darajalariga ajratildi. Tadqiqotlardan olingan natijalar statistikaning parametrik (M, ±r, ±m, t- Student) hamda noparametrik (Fisherning (φ) -burchak hosil qilish) usullari bilan hisoblandi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijalari bolalarda turli kasalliklar uchrash chastotasi OEY darajasiga bog'liq ravishda ortib borishini ko'rsatdi. OEY bo'lgan bolalarda zotiljam, bronxit, bronxiolitlar, yuqori nafas yo'llari infeksiyalari, neyrotoksikoz, yiringli kasalliklar, teri va shilliq qavat kaslliklari, ichak infeksiyalari, gasrtoezofagal sindromlar, allergik diatez, raxit va kamqonlik holatlari ancha ko'p uchragan. Shuningdek, ularda gipoksik- ishemik ensefalopatiya holatlari ham yuqori bo'lgan (8,47%, 10,7% va 15%). OEY bo'lgan bolalarda toksik- septic holatlari ($P < 0,05$), teri va shilliq qavatlar kasalliklari ($P < 0,05$; $P < 0,05$) yuqori ekanligini ko'rsatgan. Bu ona sutining immun himoyasi pastligi va dizbakterioz holatlarining borligi bilan izohlanadi. Masalan, ularda raxit, ekksudativ kataral diatez, allegik diatezlar ($P < 0,05$; $P < 0,05$), ovqat allergiyasi ($P < 0,05$; $P < 0,01$), ayniqsa kamqonlik ($P < 0,05$; $P < 0,01$; $P < 0,001$) uchrash darajasi ancha baland bo'lishi ovqatlanishdagi ferment yetishmovchiligi va ichak shilliq qavatining takomil etmaganiga bog'liq holda ekanligidan dalolat beryapti. Ayniqsa OEYning III darajasida oshqozon-ichak tizimining funksional buzilishlari qusish, meteorism, ich qotish kabi holatlar ($P < 0,05$) deyarli barcha bolalarda qayd etilgan. Shu bilan birga OEY bo'lgan bolalarda kasallanish indeksi mos ravishda 1,92; 2,05 va 4,05 bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar sog'lom bolalardagidan (0,80) sezilarli farq qilgan ($r = 0,514$, $r = 0,627$, $r = 0,728$).

Xulosa. Bir yoshgacha bo'lgan OEEga ega bolalarda kasallanish darajasi sog'lom tengdoshlariga nisbatan sezilarli yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat onadagi kamqonlik, gipogalaktiya, neonatal gipoksiya, sun'iy va moslashtirilmagan ovqatlantirish, gigiyena va parvarish rejimining buzilishi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatgan.